

**N.J. ESHNAYEV, N.T. MADGAPILOVA,
Z.D. DILMURODOVA, Z.A. NORMATOVA**

SOTSIAL PSIXOLOGIYA



316.6

E-92

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

N.J.ESHNAYEV, N.T.MADGAPILOVA, Z.D.DILMURODOVA,
Z.A.NORMATOVA

60310900 – psixologiya (amaliy psixologiya)

SOTSIAL PSIXOLOGIYA

DARSLIK

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«Olmaliq kitob business»

TOSHKENT-2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

-01/898441-

UO'K 316.6
KBK 88.5
E-92

N.J.Eshnayev, N.T.Madgapilova, Z.D.Dilmurodova, Z.A.Normatova /
Darslik. – T.: «Olmaliq kitob business» nashriyoti, 2025. -290 b.

Mas'ul muharrir:

B.N.Turakulov – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Darslik Chirchiq davlat pedagogik universiteti professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan.

Ushbu darslik ijtimoiy munosabatlar va insonning jamiyatdagi o'zaro ta'sirlariga oid bilimlarni chuqur o'rganish uchun asosiy manba hisoblanadi. Darslikda ijtimoiy psixologiyaning nazariy asoslari, asosiy tamoyillari va kontsepsiyalari keng yoritilgan. Shu bilan birga, turli-tuman ijtimoiy psixologik hodisalar - stereotiplar, kamsitishlar, konformizm, yetakchilik va guruh ichidagi dinamikalar kabi tushunchalar, hayotiy misollar va tajribalarga asoslangan holda ko'rib chiqiladi.

Mazkur kitob ijtimoiy psixologiyaga qiziqadigan talabalar, pedagoglar va psixologlar uchun foydali bo'lib, ijtimoiy bilimlarni kundalik hayotda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Darslikda mavzular qiziqarli, oson o'zlashtiriladigan tarzda ifodalangan va talabalarning mantiqiy fikrlash, tanqidiy qarashlarni rivojlantirish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quv jarayonini interaktiv tarzda olib borishga yordamlashadi.

"Sotsial psixologiya" darsligida talabalarning psixologik bilimlarini oshirish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilib, psixologiya ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Taqrizchilar:

O.U.Avlayev – CHDPU Psixologiya kafedrası ps.f.d.(DSc) v.b.professor

J.A.Pulatov – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti "Pedagogika va psixologiya" kafedrası mudiri psixologiya f.b.f.d (PhD) dotsent

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil «25» iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 218-514

ISBN 978-9910-751-04-2

Mundarija	Betlar
Kirish.....	4
Sotsial psixologiyaga kirish.....	5-8
Ijtimoiy psixologiyaning shakllanishi va rivojlanishi, ijtimoiy psixologik g'oyalarning shakllanish tarixi.....	9-19
Ijtimoiy psixologiyaning asosiy zamonaviy yo'nalishlari.....	20-22
Ijtimoiy psixologik tadqiqotlarning metodologiyasi va metodlari.....	23-32
Ijtimoiy psixologiyada shaxs muammosi.....	33-46
Sotsial psixologiyada shaxs muammosi. Shaxsning sotsial - psixologik tipologiyasi.....	47-51
Shaxsning ijtimoiylashuvi muammosi.....	52-60
Shaxsning sotsial ustanovkalari.....	61-66
Shaxslararo munosabatlarda shaxs agressivligi.....	67-69
Sotsial va shaxslararo munosabatlar jarayonida namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatlari.....	70-76
Muloqot psixologiyasi.....	77-80
Muloqot sotsial va shaxslararo munosabatlarning ifodasi.....	81-92
Sotsial va shaxslararo munosabatlari.....	93-99
Sotsial psixologiyada katta ijtimoiy guruhlar psixologiyasi. Etnik guruhlar psixologiyasi.....	100-104
Sotsial psixologiyada guruhlar muammosi.....	105-118
Sotsial psixologiyada katta guruhlarining o'rganilishi.....	119-127
Sotsial psixologiyada kichik guruhlar psixologiyasi: klassifikatsiyasi, qonuniyatlar va dinamik jarayonlar.....	128-136
Kichik guruhlar psixologiyasi.....	137-155
Boshqaruv psixologiyasi. Liderlik nazariyalari.....	156-174
Oila funktsiyasi, oila tiplari va rollari.....	175-192
Psixologik adaptatsiya va oila integratsiyasi.....	193-198
Ota-ona va farzandlar munosabatlarining xususiyatlari.....	199-204
Reproduktiv ustanovkalar. Reprodukativ ehtiyojlar tushunchasi...	205-207
Etnopsixologiya fanining predmeti, vazifalari va metodlari.....	208-220
Etnos va millat tushunchalarining qiyosiy tahlili.....	221-231
Milliy xarakter va etnik identiklik.....	232-251
Din psixologiyasining predmeti va metodlari.....	252-259
Dinning shaxs shakllanishidagi o'rni va mohiyati.....	260-267
Ta'lim tizimida sotsial muhit va uni barqarorlashtirish omillari	268-274
Tatbiqiy sotsial psixologiyasi.....	275-285
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	286-289

KIRISH

Sotsial psixologiya insonlarni bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishini, guruhlardagi ta'sirlarni, shaxsiy xulq-atvorni va odamlar orasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik omillarini o'rganadi. Ushbu fan psixologiya va sotsiologiyaning kesishish nuqtasida joylashgan bo'lib, individlarning jamiyatdagi xatti-harakatlari va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarini tahlil qiladi. Sotsial psixologiya asosiy e'tiborini odamlarning o'zlari va boshqalar haqidagi qarashlari, munosabatlari va his-tuyg'ulariga qaratadi.

Sotsial psixologiya bir nechta asosiy maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Birinchi navbatda, bu fan shaxslarning ijtimoiy munosabatlar va guruh dinamikalarini qanday tushunishlarini o'rganishga qaratilgan. Ular boshqalarga qanday ta'sir qilishlari, boshqalardan ta'sirlanishlari va o'z xatti-harakatlarini jamiyat talablariga moslashiga qanday erishishlarini tahlil qiladi. Shuningdek, sotsial psixologlar jamiyatda mavjud stereotiplar, xurofotlar, ayrim ijtimoiy hodisalarning qanday shakllanishi va odamlarning bunga nisbatan munosabatlarini tadqiq etadi.

Sotsial psixologiya fanining paydo bo'lishiga qiziqish XIX asr oxiri va XX asr boshlariga borib taqaladi. Ilk tadqiqotchilar orasida psixologiya va sotsiologiya sohalarida mashhur bo'lgan Uilyam Makdugal va Edvard Ross kabi olimlarni ko'rsatish mumkin. Bu fan dastlab faqat nazariy tadqiqotlarga asoslangan bo'lsa-da, bugungi kunda turli tajriba va empirik tadqiqotlar orqali rivojlanib, yanada chuqur tahlil imkonini bermoqda. Zamonaviy sotsial psixologiya o'z metodologiyasini boyitib, yanada keng ko'lamdagi mavzularni qamrab olmoqda.

Sotsial psixologiyaning amaliy ahamiyati jamiyat va shaxslar o'rtasidagi aloqalarni tushunish va rivojlantirishdan iborat. Masalan, bu fan insonlar o'rtasida kelib chiqadigan mojarolarni hal qilish, guruhlarini boshqarish, marketing va reklama sohalarida jamoatchilik bilan aloqalarni yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Sotsial psixologiya shuningdek, insonlar orasidagi muammolarni tahlil qilish va ularga yechim topishda katta yordam beradi, shu bilan birga, jamiyatda ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda sotsial psixologiya sohasi global muammolar, ijtimoiy o'zgarishlar va madaniyatlararo farqlarni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, insoniyatga yangi tushunchalar va amaliyotlar olib kelmoqda. Texnologik rivojlanish bilan birgalikda, odamlarning onlayn munosabatlari va virtual jamoalardagi xulq-atvori ham alohida o'rganilmoqda. Bu esa, fan sohasini yanada kengaytirib, zamonaviy muammolarni hal etishda ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

1-MAVZU: SOTSIAL PSIXOLOGIYAGA KIRISH.

Reja:

1. Sotsial psixologiyaning predmeti.
2. Sotsial psixologiya predmetiga nisbatan mavjud uch nuqtai nazar.
3. Sotsial psixologiyaning hozirgi kundagi mavqei.

Insoniyat jamiyati paydo bo'lib, odamlar hamkorlikda mehnat qilish va yashash ehtiyojini sezgan davrdan boshlab ularda sotsial psixologik tafakkur, sotsial ruh paydo bo'lgan. Insoniyatning eng ilg'or vakillari bunday ruh qonuniyatlarini o'rganish, uning sirli tomonlarini sharhlashga urinib kelganlar. Lekin sotsial ruh qanchalik qadimiy bo'lsa, uning sirlarini o'rganuvchi fani sotsial psixologiya shunchalik navqirondir. Sotsial psixologiya fan sifatida yaratilgan yili rasman 1908-yil hisoblanib, xuddi ana shu yil Londonda ingliz psixologi Uilyam Mak-Dugall (1871-1938) «Sotsial psixologiyaga kirish», Nyu-Yorkda amerikalik sotsiolog Edvard Olsvort Ross (1866-1951) esa «Sotsial psixologiya» darsligini chop etdilar. Bu yilda ham psixologning, ham sotsiologning bir soha bo'yicha kitob yozishlarining o'zi ramziy ma'noga ega bo'lib, bu fanning ikki fan oralig'ida psixologiya va sotsiologiya oralig'ida paydo bo'lganligining yana bir isboti bo'lib xizmat qildi. Ya'ni, sotsial psixologiya ikki turdagi qonuniyatlar sotsial hamda psixik taraqqiyot qonuniyatlari bilan ish olib boradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, hozirgi kungacha sotsial psixologiyaning mavzu bahsi va u o'rganadigan sohalar borasida turlicha qarashlar va tortishuvlar mavjud.

Taniqli nemis olimlari Gans fon Gibsh va Manfred Forverglar bu fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beradilar: «Odamlar uyushmasi, kooperatsiyalar sotsial psixologik tadqiqotlarning asosidir, uning ob'yekti esa sotsial ta'sir jarayonlari, ularni uyushishga majbur qiladigan shart-sharoitlar hamda motivlar sotsial psixologiya o'rganishi kerak bo'lgan sohalaridir». Rus sotsiologlari German Pavlovich Predvechniy va Yuriy Aleksandrovich Sherkovinlarning 1975-yilda bosilib chiqqan «Sotsial psixologiya» kitobida esa uning predmeti «ob'yektiv borliqning va unda ro'y beradigan hodisalarning psixika tomonidan o'ziga xos tarzda in'ikos etilishidir», deb hisoblanadi. Bu mualliflar sotsial psixologiyaning barcha o'rganish ob'yektlarini sharhlar ekanlar, ko'proq sotsiologik yondashish bilan muammolarni yechishga harakat qilganlar. Sotsial psixologiyaning mavzu bahsini ta'riflashga psixologik yondashuv Artur Vladimirovich Petrovskiy va Vladislav Viktorovich Shpalinskiylarning «Jamoaning sotsial psixologiyasi» kitobida bayon etilgan. Bu mualliflarning fikricha «Sotsial psixologiya psixologiya fanining shunday tarmog'iki, u turli

uyushgan va uyushmagan guruhdagi odamlarning muloqoti, o'zaro ta'sir va munosabatlaridan kelib chiqadigan psixik hodisalarni o'rganadi».

Ilmiy sotsial psixologiyaning asoschilaridan bo'lgan rus faylasufi va psixologi Boris Dmitriyevich Parigin sotsial psixologiyaning predmetiga quyidagicha ta'rif beradi: «Sotsial psixologiyaning predmeti bu – guruh, jamoaviy va ommaviy psixologiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni odamlarning umumiy faoliyatida namoyon bo'luvchi ularning xulqi, kechinmalari va bir-birlari bilan psixologik muloqot qilish yo'llaridir».

Hozirgi zamon amerikalik sotsial psixolog olimlardan Devid Myers fanning predmetiga quyidagicha ta'rif beradi: «Sotsial psixologiya bu – odamlarning bir-birlari haqida nimalarni o'ylashlari, bir-birlariga qanday ta'sir ko'rsatishlari hamda bir-birlariga qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganuvchi fandir»¹.

Shuning uchun ham Galina Mixaylovna Andreyeva sotsial psixologiyaning mavzu bahsi haqidagi hozirgi zamon qarashlarini umumlashtirib, bu o'rinda uch xil yondashish mavjudligini e'tirof etadi

Yondashuvlar:

1. Sotsiologik yondashuv

Sotsial psixologiya asosan ommaviy psixologik jarayonlarni xalqlar psixologiyasi, ommaviy marosimlar, udumlar, rasm-rusmlar, modaning inson ongiga singishi, sotsial xulq-atvorda namoyon bo'lishini o'rganishi kerak (Yu.A.Sherkovin, G.P.Predvechniy, R.Pento, M.Gravitts va boshqalar).

2. Psixologik yondashuv

Shaxsning sotsial psixologik xislatlari, uning turli guruhlarda tutgan o'rni, mavqei, sotsial ustanovkalar va hokazolarni o'rganmog'i lozim (A.V.Petrovskiy, B.F.Parigin, A.G.Asmolov, U.Mak-Dugall va boshqalar).

3. Ham sotsiologik, ham psixologik yondashuv

Ham ommaviy jarayonlarni, ham shaxsning shu jarayonlardagi xulq-atvorlari motivlarini o'rganishi kerak. Masalan, Vladimir Nikolayevich Myasishev 1960-yilda nashr etilgan «Shaxs va nevrozlar» kitobida, sotsial psixologiya shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida shaxsda paydo bo'ladigan ruhiy faoliyat xususiyatlarini ham, guruhlarining o'ziga xos psixologiyasini ham, jamiyatda ro'y beradigan jarayonlarning psixologik tomonlarini ham bir vaqtda o'rganishni taklif etadi.

Amerika sotsial psixologiyasida ham sotsial psixologiyaning mavzu bahsi borasida o'zoq tortishuvlar mavjud bo'lgan. Ularda bu fanning mavzu bahsini sotsiologiya yoki psixologiya fani ichidan qidirish (intradistsiplinar yondashuv) yoki ikkala fan oralig'idan qidirish hollarini ko'zatishimiz mumkin. Lekin bu

sohadagi tortishuvlar qanchalik bo'lmasin, baribir, G.M.Andreyevaning obrazli iborasiga ko'ra, uning «ota-onasi» sotsiologiya bilan psixologiya ekanligini tan olishi kerak. Bu boradagi aniq fikrni fransuz olimlari R.Pento va M.Gravitts ham ta'kidlashgan: «Shu paytgacha shaxs va jamiyat muammolari sohasida ikki xil yondashuv bo'lib kelgan edi: psixologiya inson tabiatini, uning psixikasini, sotsiologiya esa, jamiyat tabiatini, psixikasini o'rganib keldi. Sotsial psixologiya paydo bo'ldiki, u insonning jamiyatda munosabatining psixologik tomonini o'rganmoqda». Umumiy holda, fanning predmetini sotsial psixologiya odamlarning jamiyatda birgalikdagi ish faoliyatining natijasida hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarni tushuntirib beruvchi fandir deb ta'rif berishimiz mumkin. Demak, har bir shaxsning jamiyatda yashashi, uning sotsial normalariga rioya qilgan holda o'ziga o'xshash shaxslar bilan o'rnatadigan murakkab o'zaro munosabatlari va ularning ta'sirida hosil bo'ladigan hodisalarning psixologik tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib berish sotsial psixologiyaning muhim tomonidir. Bundan kelib chiqadigan umumiy ta'riflarga, sotsial psixologiya, sotsial muloqotning murakkab shakl va mexanizmlarini o'rganuvchi fandir.

Sotsial psixologiyaning hozirgi kundagi mavqei.

Jamiyat bu insonlar majmuidir. Uning taraqqiyoti va ma'naviy salohiyati ko'p jihatdan ana shu insonlar o'rtasida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlarning tabiatiga, ular amalga oshiradigan murakkab sotsial hamkorlik faoliyatining mazmuniga bog'liq. Har bir inson jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi, binobarin, u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik namunalarni namoyish qiladi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rni va uning turlicha sotsial munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator sotsial fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida sotsial psixologiya alohida o'rin egallaydi.

Sotsial psixologiya juda qadimiy va shu bilan birga u o'ta navqiron fandir. Uning qadimiyligi insoniyat tarixi, madaniyati va ma'naviyatining qadimiy ildizlari bilan belgilanadi. Ular aslini olib qaraganda, u yoki bu jamiyatda yashagan kishilar o'rtasidagi, sotsial munosabatlarning va tafakkurning hosilasi bilan e'tirof etilsa, u o'z uslubi, predmeti va fanlar tizimida tutgan o'rining yangiligi insoniyat taraqqiyotining eng yangi davrida shakllanganligi va rivojiga turtki berganligi bilan tavsiflanadi.

«Yer-u ko'kdagi buyuk o'zgarishlarni sezish, his qilish va ulardan saboq chiqarish, o'mak olish uchun odamzod o'zining yon atrofiga uyg'oq nigoh, qalb ko'zi bilan qarashi lozim». Respublikamizning Birinchi prezidenti aytgan bu fikrni shaxs va uning psixologiyasi bilan qanday bog'lash mumkin. Bu fikrni

¹ I V.Karimova. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 8.